

**TOSHKENT VILOYATI REKREATSIYA RESURSLARI TAHLILI:
(PISKENT, PARKENT VA ZANGIOTA TUMANLARI)**

Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti PhD doktoranti

Zokirova L.A.

KIRISH

Toshkent viloyati O‘zbekistonning turizm va rekreatsion salohiyati eng yuqori hududlaridan biridir. Poytaxt aglomeratsiyasi yaqinida joylashgani sababli bu hudud aholining qisqa muddatli, kunlik va dam olish kunlariga mo‘ljallangan sayohatlarida asosiy manzil hisoblanadi. Viloyatda so‘nggi yillarda turizm infratuzilmasi sezilarli darajada rivojlanib bormoqda: 2018–2023 yillarda joylashtirish tarmoqlari soni keskin oshgan, mehmonxonalar 67 tadan 106 taga, oilaviy mehmon uylari esa 20 tadan 774 taga yetgan [1][2]. Bu o‘shish ichki turizm talabi va xizmatlar bozorining kengayishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu jarayonda Piskent, Parkent va Zangiota tumanlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning har biri o‘zining tabiiy, madaniy va ijtimoiy resurslari bilan ajralib turadi: Piskent — daryo-vodiy agro-rekreatsiyasi, Parkent — tog‘ etagi ekoturizmi, bioxilma-xillik, Zangiota esa — ziyorat turizmi va shahar atrofi kunlik dam olish.

Piskent tumani: daryo-vodiy landshafti va agro-rekreatsiya

aPiskent tumani Ohangaron vodiysining g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, tabiiy va agro-xo‘jalik landshaftlari bilan ajralib turadi. Bahor-yoz oylarida Ohangaron daryosi va soylarining suv sathi ko‘tarilib, piknik, baliqchilik va dam olish maskanlariga talabni oshiradi. Qishda esa madaniy-ma‘rifiy yo‘nalishlar, oshxona va gastronomik turizm dolzarblashadi [1].

Hududning asosiy rekreatsion salohiyati qishloq xo‘jaligi klasterlari bilan bog‘liq. Uzumchilik, bog‘dorchilik, asalarichilik va chorvachilik mahsulotlari mahalliy agro-gastro yo‘nalishlarni shakllantiradi. Oilaviy mehmon uylari va mahalliy mahsulotlar yarmarkalari ichki turizmning qo‘shimcha segmenti bo‘lib xizmat qilmoqda [10].

Muammolar: daryo bo‘yida chiqindi boshqaruvi, pik kunlarda transport tirbandligi, sohilbo‘yi muhofaza zonalarida tartib va nazoratning sustligi. Bu cheklovlar hudud rekreatsiyasining asosiy zaif nuqtalarini tashkil etadi.

Parkent tumani tabiiy boyliklari va landshaft xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Ugam–Chatqol tizmasi etaklarida joylashgan bu hudud relyefi, sharsharalari, archazor va soy-jarlari bilan ekoturizm uchun katta salohiyatga ega [3][4].

So‘qoq, Zarkent va Kumushkon yo‘nalishlarida turli dam olish bazalari, oromgohlar, oilaviy mehmon uylari mavjud [8][9]. Bu esa turizm infratuzilmasining diversifikatsiyalashganligini ko‘rsatadi.

Parkentning eng muhim resurslaridan biri — bioxilma-xillik. Tadqiqotlarga ko‘ra, hududda 150 dan ortiq daraxt-buta turlari mavjud, jumladan Qizil kitobga kiritilgan noyob turlar ham uchraydi [6]. Bu ekotizim ilmiy-ma‘rifiy turizm, botanika kuzatuvlari, ekologik ta‘lim uchun asos yaratadi.

Zaif tomonlari: yuklama boshqaruvining murakkabligi, transport-parkovka infratuzilmasining yetishmasligi va “off-road” faoliyatining tabiiy muhitga salbiy ta’siri. Imkoniyatlari: agro-gastro festivallar, ilmiy-ekologik marshrutlar, sertifikatlangan gidlar tarmog‘i, hamda “yashil yo‘laklar” konsepsiyasini joriy etish [5].

Zangiota tumani Toshkent shahriga eng yaqin rekreatsiya hududi bo‘lib, markaziy resursi — Zangiota maqbarasi va majmuasi [7]. Bu obida yil davomida barqaror tashrif oqimini ta’minlaydi va mamlakat miqyosida taniqli qadamjo sifatida xizmat qiladi.

Tumanda qisqa masofali kunlik dam olish shakllari rivojlangan: oilaviy parklar, gastronomik xizmatlar, ma’naviy-ziyosat marshrutlari. Toshkent aholisining haftalik dam olish ehtiyojini qondirishda Zangiota muhim rol o‘ynaydi.

Muammolar: pik kunlarda transport tirbandligi, avtoturargoh yetishmovchiligi, sanitariya-gigiyena muammolari. Shu bilan birga, turistik oqimni diversifikatsiya qilish ham zarur. Imkoniyatlari: ziyorat-madaniy paketlar, “shuttle” jamoat transporti yo‘nalishlari, madaniy-ma’rifiy dasturlar.

XULOSA

Piskent, Parkent va Zangiota tumanlari Toshkent viloyati rekreatsiya tizimida o‘ziga xos ixtisoslashuvlarga ega. Piskent — agro-gastro va daryo-vodiy dam olish markazi, Parkent — ekoturizm va bioxilma-xillik, Zangiota esa — ziyorat turizmi va kunlik dam olish markazidir. SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavjud imkoniyatlar zaif tomonlardan ustun bo‘lib, to‘g‘ri boshqaruv orqali viloyat rekreatsion tizimi yangi bosqichga olib chiqilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent viloyati hokimligi. Turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar (2018–2023 dinamikasi). Rasmiy axborot, 2023.
2. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. 2023-yilda turizm va dam olish ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2024.
3. Vazirlar Mahkamasining 657-son qarori. Ugam-Chatqol davlat milliy tabiat bog‘ini boshqarish to‘g‘risida. 14-avgust 2018.
4. Uzbekistan.travel. Ugam-Chatqol davlat milliy tabiat bog‘i va ekoturizm marshrutlari. Rasmiy turizm portali, 2023.
5. Ekologiya vazirligi. Ugam-Chatqol DMTB hududidagi ekoturizm maskanlari va rekreatsiya obyektlari. Gov.uz, 2024.
6. Raximov, A., Abdurahmonov, S. Ugam-Chatqol davlat milliy tabiat bog‘i dendroflorasi va Qizil kitob turlari. O‘zbekiston biologiya jurnali, 2024.
7. Uzbekistan.travel. Zangiota majmuasi va maqbarasi. Rasmiy turizm portali, 2023.